2026-yil
9(2)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Boboyeva Sayyora Boboradjabovna, psixologiya fanlari doktori, professor, Tojikiston
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI

Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

UDK 378.147:37.011.3-051



Janbayeva Marjan Smatillayevna,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
dotsenti v.b.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHINI “TALABA ORBITASI” MODELI ASOSIDA INDIVIDUALLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirish muammosi zamonaviy pedagogik ta’lim talablari nuqtayi nazaridan tahlil qilinib, uni tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi “Talaba orbitasi” modeli taklif etiladi. Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi tayyor bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayoni sifatida emas, balki individual ehtiyoj, kasbiy motivatsiya, mavjud kompetensiyalar, amaliy tajriba, refleksiya va kasbiy maqsadlar asosida muntazam takomillashib boradigan dinamik jarayon sifatida talqin etiladi. “Talaba orbitasi” modeli diagnostik-prognostik, maqsadli-loyihaviy, kognitiv-kompetensiyaviy, amaliy-faoliyatli, innovatsion-raqamli, mentorlik-hamkorlik, refleksiv-monitoring va korreksion-rivojlantiruvchi komponentlarning uzviy birligiga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, “Talaba orbitasi”, kasbiy rivojlanish, individual ta’lim trayektoriyasi, kasbiy mobillik, kompetensiya, individuallashtirish, pedagogik diagnostika, mentorlik, refleksiv monitoring, raqamli kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ИНДИВИДУАЛИЗАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ «ОРБИТА СТУДЕНТА»

Аннотация. В статье рассматривается проблема индивидуализации профессионального развития будущих учителей с позиций современных требований педагогического образования и предлагается модель

«Студенческая орбита» как концептуальная основа организации данного процесса. Профессиональное развитие будущего учителя рассматривается не только как процесс усвоения знаний и навыков, но и как динамический процесс, основанный на индивидуальных потребностях, профессиональной мотивации, имеющихся компетенциях, практическом опыте, рефлексии и профессиональных целях. Модель «Студенческая орбита» включает диагностико-прогностический, целево-проектировочный, когнитивно-компетентностный, практико-деятельностный, инновационно-цифровой, наставническо-партнёрский, рефлексивно-мониторинговый и коррекционно-развивающий компоненты.

Ключевые слова: будущий учитель, «Студенческая орбита», профессиональное развитие, индивидуальная образовательная траектория, профессиональная мобильность, компетентность, индивидуализация, педагогическая диагностика, наставничество, рефлексивный мониторинг, цифровая компетентность.

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR INDIVIDUALIZING THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS BASED ON THE "STUDENT ORBIT" MODEL

Abstract. The article examines the problem of individualizing the professional development of future teachers in accordance with the contemporary requirements of teacher education and proposes the "Student Orbit" model as a conceptual framework for organizing this process. The professional development of future teachers is interpreted not merely as the acquisition of knowledge and skills, but as a dynamic process based on individual needs, professional motivation, existing competencies, practical experience, reflection, and professional goals. The "Student Orbit" model integrates diagnostic-prognostic, goal-oriented and design-based, cognitive-competence, practical-activity, innovative-digital, mentoring-collaborative, reflective-monitoring, and corrective-developmental components.

Keywords: future teacher, "Student Orbit", professional development, individual educational trajectory, professional mobility, competence, individualization, pedagogical diagnostics, mentoring, reflective monitoring, digital competence.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida yuz berayotgan ijtimoiy, texnologik va pedagogik o'zgarishlar o'qituvchining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablarning mazmunini sezilarli darajada yangilamoqda. Bugungi pedagogdan faqat o'z fanini yaxshi bilish va an'anaviy o'qitish metodlarini qo'llash emas, balki o'zgaruvchan ta'lim sharoitlariga moslashish, yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, turli ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan

o‘quvchilar bilan ishlash, mustaqil kasbiy qarorlar qabul qilish va o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib borish talab etiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lajak o‘qituvchini kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bir qatorda uning individual kasbiy rivojlanishini boshqarish imkoniyatlarini shakllantirishdan iborat.

An’anaviy pedagogik tayyorgarlik tizimida talabalar uchun yagona o‘quv mazmuni, umumiy topshiriqlar va bir xil baholash mezonlarining ustuvorligi ko‘pincha ularning individual qobiliyatlari, kasbiy qiziqishlari, motivatsiyasi, mavjud tajribasi va rivojlanish sur’atlari o‘rtasidagi farqlarni yetarli darajada hisobga olish imkonini bermaydi. Vaholanki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishi individual xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Bir talaba pedagogik faoliyatga yuqori motivatsiya bilan kirib kelishi mumkin, boshqasida esa kasbiy qiziqish amaliyot jarayonida shakllanishi mumkin. Ayrim talabalar nazariy bilimlarni tez o‘zlashtirsa, boshqalari amaliy faoliyat orqali samaraliroq rivojlanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini tashkil etishda “barchaga bir xil” tamoyilidan individual ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga oluvchi pedagogik modelga o‘tish zarur.

Samarali professional rivojlanish masalasini o‘rgangan L. Darling-Hammond, M.E. Hyler va M. Gardner kasbiy rivojlanish mazmunga yo‘naltirilgan, faol o‘rganishga asoslangan, hamkorlikni nazarda tutadigan, amaliy faoliyat bilan bog‘langan, ekspert va mentorlik yordamini ta’minlaydigan, teskari aloqa va refleksiyani o‘z ichiga oladigan hamda izchil davom etadigan jarayon bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi [2]. Mazkur yondashuv bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash jarayonida nazariya, amaliyot, hamkorlik va refleksiyaning o‘zaro bog‘liqligini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Kasbiy rivojlanish bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy mobilligi ham muhim pedagogik sifat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kasbiy mobillik yangi kasbiy vazifalarni o‘zlashtirish, yangi faoliyat sharoitlariga moslashish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va o‘z kasbiy rivojlanish yo‘nalishini o‘zgartira olish qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Muallifning avvalgi tadqiqotlarida ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mobilligini shakllantirishda kompetensiyaviy, integrativ, innovatsion va refleksiv yondashuvlarning ahamiyati asoslangan [1].

Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada “Talaba orbitasi” tushunchasi mualliflik konseptual konstruksiyasi sifatida taklif etiladi. “Orbita” tushunchasi talabaning oliy ta’lim jarayonidagi harakatini, uning boshlang‘ich kasbiy imkoniyatlaridan boshlab pedagogik kompetentlik va mustaqil kasbiy rivojlanish darajasiga qadar bo‘lgan individual yo‘lini ifodalaydi. Bunda talabaning rivojlanish yo‘li qat’iy va o‘zgarmas chiziq sifatida emas, balki diagnostika, amaliy faoliyat, monitoring va refleksiya natijalariga ko‘ra yangilanib boradigan dinamik tizim sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirishga xizmat qiluvchi “Talaba orbitasi” modelining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning tarkibiy komponentlarini aniqlash va modelni amalga oshirishning pedagogik mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va professional kompetentligini shakllantirish masalasi pedagogika, psixologiya va kasbiy ta’lim nazariyasida keng o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarning umumiy jihati shundan iboratki, zamonaviy o‘qituvchini tayyorlash jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, uning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, refleksivligi va uzluksiz rivojlanish ehtiyojini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

H. Borko o‘qituvchilarning professional rivojlanishini murakkab va ko‘p omilli jarayon sifatida baholab, o‘qituvchi bilimlari, e’tiqodlari, pedagogik amaliyoti va o‘quvchilar faoliyatidagi o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni alohida ko‘rsatadi [3]. Mazkur qarash kasbiy rivojlanishni faqat alohida kompetensiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki pedagogik faoliyatning turli komponentlari o‘zaro ta’sirida yuzaga keladigan jarayon sifatida tushunishga imkon beradi.

M. Fullan ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatini yangi pedagogik paradigma sifatida ko‘rib, o‘quv jarayonida subyektlar o‘rtasidagi sheriklikning ahamiyatini ta’kidlaydi [4]. Bu yondashuv “Talaba orbitasi” modelida mentorlik, hamkorlik va talabaning faol subyekt sifatidagi mavqeini belgilash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

M. Mulder professional kompetensiya tushunchasini kasbiy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, munosabat va tajribaning integratsiyasi sifatida talqin qiladi [5]. Shu jihatdan bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi alohida bilim yoki ko‘nikmalarni o‘zlashtirishdan ko‘ra kengroq jarayon bo‘lib, turli kompetensiyalarning real pedagogik vaziyatlarda uyg‘unlashishini talab etadi.

Kasbiy mobillik masalasi bo‘yicha T. Babenko talabalar professional tayyorgarligi jarayonida ijtimoiy va kasbiy mobillikni rivojlantirish zarurligini qayd etadi [6]. Y.I. Biktuganov esa o‘qituvchining professional mobilligini yangi pedagogik sharoitlar, kasbiy vazifalar va faoliyat texnologiyalariga moslashish imkoniyati bilan bog‘laydi [7]. N.V. Belyakova ham yangi avlod ta’lim standartlariga o‘tish sharoitida pedagogik kadrlarning professional mobilligini ularning kasbiy faoliyatidagi muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida baholaydi [8].

Mazkur tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini individuallashtirish bir nechta pedagogik mexanizmlarning birgalikdagi faoliyatini talab etadi. Bular, avvalo, individual diagnostika, maqsadni belgilash, amaliy faoliyat, mentorlik, refleksiya va monitoringdan iborat. Biroq ushbu mexanizmlarni yagona dinamik modelga birlashtirish masalasi alohida konseptual yondashuvni talab qiladi. “Talaba orbitasi” modeli ana shu ehtiyojdan kelib chiqib ishlab chiqilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, unda tizimli, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlardan foydalanildi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, pedagogik tushunchalarni tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va nazariy sintez tadqiqotning asosiy metodlarini tashkil etdi.

Tizimli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishi o‘zaro bog‘langan komponentlardan iborat yaxlit jarayon sifatida qaraldi. Kompetensiyaviy yondashuv kasbiy rivojlanish natijalarini bilim, ko‘nikma, munosabat va amaliy faoliyatning integrallashgan birligi sifatida belgilashga imkon berdi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv talabaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, kasbiy ehtiyojlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olishni nazarda tutdi. Refleksiv yondashuv esa talabaning o‘z kasbiy rivojlanishini anglash, baholash va zaruratga ko‘ra qayta loyihalash qobiliyatini modelning muhim tarkibiy qismi sifatida belgiladi.

Kasbiy rivojlanishning texnologik jarayoni diagnostika, maqsadni belgilash, individual trayektoriyani shakllantirish, faoliyatni tashkil etish, monitoring, refleksiya va korreksiya bosqichlarining uzviyligi asosida talqin qilindi. Bunda har bir bosqich keyingi bosqich bilan bog‘langan bo‘lib, yakuniy natija navbatdagi rivojlanish siklining boshlanish nuqtasiga aylanadi.

Mazkur maqolada “Talaba orbitasi” modeli eksperimental natija sifatida emas, balki ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik tajriba va nazariy umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan mualliflik konseptual modeli sifatida taqdim etiladi. Modelning amaliy samaradorligini kelgusida maxsus tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari orqali empirik tekshirish mumkin.

Natijalar. Tadqiqot natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarning individual kasbiy rivojlanishini tashkil etishga yo‘naltirilgan “Talaba orbitasi” modelining tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi. Modelning markazida talabaning o‘zi turadi. Bunda talaba pedagogik ta’sirning passiv obyekti emas, balki o‘z kasbiy rivojlanishining faol subyekti sifatida qaraladi.

“Talaba orbitasi” modelining mazmuni quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlar orqali ifodalanadi.

Komponent	**Mazmuni**	**Kutiladigan natija**
Diagnostik-prognostik	Boshlang‘ich bilim, kompetensiya, motivatsiya, qiziqish va kasbiy ehtiyojlarni aniqlash	Individual kasbiy profil
Maqsadli-loyihaviy	Individual kasbiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash	Shaxsiy rivojlanish xaritasi
Kognitiv-kompetensiyaviy	Kasbiy-pedagogik bilim va kompetensiyalarni rivojlantirish	Kasbiy bilim va kompetensiyalar tizimi
Amaliy-faoliyatli	Pedagogik amaliyot, real	Amaliy kasbiy tayyorgarlik

	kasbiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar bilan ishlash	
Innovatsion-raqamli	Raqamli pedagogika, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion vositalardan foydalanish	Raqamli-innovatsion kompetentlik
Mentorlik-hamkorlik	Talaba, pedagog, mentor va amaliyot bazasi o'rtasidagi hamkorlik	Individual pedagogik qo'llab-quvvatlash
Refleksiv-monitoring	O'z-o'zini baholash, portfolio, teskari aloqa va natijalarni tahlil qilish	Kasbiy o'zini boshqarish
Korreksion-rivojlantiruvchi	Monitoring natijalariga ko'ra individual rivojlanish yo'nalishini qayta ko'rib chiqish	Uzluksiz kasbiy rivojlanish

Modelning birinchi bosqichi diagnostik-prognostik komponent bilan boshlanadi. Ushbu bosqichda talabaning mavjud bilimlari, kasbiy motivatsiyasi, qiziqishlari, pedagogik faoliyatga munosabati, kommunikativ va raqamli kompetensiyalari hamda rivojlanishga ehtiyoji aniqlanadi. Diagnostika natijasida talabaning individual kasbiy profili shakllantiriladi. Bu profil keyingi pedagogik ta'sirlarning umumiy emas, balki talabaning real ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishiga imkon beradi.

Keyingi bosqichda individual kasbiy maqsadlar belgilanadi. Talaba o'zining qisqa, o'rta va uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini aniqlaydi. Masalan, bir talaba dars loyihalash kompetensiyasini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olishi mumkin, boshqa talaba esa kommunikativ kompetensiya, raqamli pedagogika yoki sinfni boshqarish ko'nikmalarini takomillashtirishga ehtiyoj sezishi mumkin. Shu tariqa yagona o'quv dasturi doirasida turli individual rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

"Talaba orbitasi"ning amaliy-faoliyatli komponenti nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlar bilan bog'lashga xizmat qiladi. Pedagogik amaliyot, mikroo'qitish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dars loyihalarini ishlab chiqish, kuzatuv va mustaqil pedagogik topshiriqlar talabaning kasbiy kompetensiyalarini amaliy faoliyat orqali rivojlantirish imkonini beradi. Bunda amaliyot faqat o'quv rejasidagi majburiy bosqich sifatida emas, balki individual kasbiy rivojlanishning asosiy maydoni sifatida qaraladi.

Mentorlik komponenti talabaning mustaqil faoliyatini professional qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq. Mentor talabaning o'rniga qaror qabul qilmaydi, balki uning pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilishi, muqobil yechimlarni ko'rib chiqishi va o'z qarorini asoslashiga ko'maklashadi. Bunday yondashuv talabaning subyektlik pozitsiyasini kuchaytiradi.

Raqamli va innovatsion komponent zamonaviy pedagogik faoliyatning ajralmas qismidir. Bo‘lajak o‘qituvchi ta’lim platformalari, raqamli kontent, interaktiv vositalar va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishni o‘zlashtirishi zarur. Biroq raqamli vositani bilishning o‘zi yetarli emas. Muhimi, talaba qaysi pedagogik vaziyatda qaysi vosita samarali bo‘lishini aniqlay olishi va uning ta’limiy natijaga ta’sirini baholay bilishidir.

Refleksiv-monitoring komponenti modelning dinamikligini ta’minlaydi. Talaba o‘z faoliyatini muntazam tahlil qilib, erishilgan natijalarni belgilangan maqsadlar bilan taqqoslaydi. Portfolio, o‘z-o‘zini baholash, mentor fikri, pedagogik kuzatuv va teskari aloqa ushbu jarayonning asosiy vositalari sifatida xizmat qiladi. H. Borkoning professional rivojlanish haqidagi qarashlari ham o‘qituvchi faoliyatidagi bilim, qarash va amaliyotning o‘zgarishini kuzatish va tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Modelning muhim xususiyati uning siklik tuzilishidir. Diagnostika maqsadni belgilashga, maqsad individual faoliyatga, faoliyat monitoringga, monitoring refleksiyaga, refleksiya esa korreksiyaga olib keladi. Korreksiyadan so‘ng yangi diagnostik holat yuzaga keladi va rivojlanish jarayoni keyingi bosqichga o‘tadi. Demak, “Talaba orbitasi” chiziqli emas, balki spiral xarakterdagi rivojlanish modelini ifodalaydi.

“Talaba orbitasi” modelining pedagogik mexanizmlari

“Talaba orbitasi” modelini ta’lim jarayoniga joriy etishda uning tarkibiy qismlarini oddiy ketma-ketlik sifatida emas, o‘zaro ta’sir qiluvchi pedagogik mexanizmlar sifatida ko‘rish muhimdir. Birinchi mexanizm individual diagnostika hisoblanadi. Diagnostika talabaning qaysi nuqtadan rivojlanishni boshlayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Bunda faqat akademik ko‘rsatkichlar emas, balki motivatsiya, kasbiy qiziqish, kommunikativ qobiliyat, refleksivlik, raqamli kompetensiya va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasi ham hisobga olinishi lozim.

Ikkinchi mexanizm individual maqsadlashtirishdir. Talaba o‘zining kasbiy rivojlanish maqsadlarini aniq belgilashi orqali ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Individual maqsadlar umumiy davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari talablariga zid bo‘lmaydi, balki ularning doirasida shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini belgilaydi.

Uchinchi mexanizm pedagogik loyihalashdan iborat. Bunda individual maqsadlarga erishish uchun qanday o‘quv faoliyati, amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlar, mentorlik mashg‘ulotlari va refleksiv faoliyat zarurligi belgilanadi. Shu asosda talabaning shaxsiy rivojlanish xaritasi shakllantiriladi.

To‘rtinchi mexanizm amaliy faoliyatni individuallashtirishdir. Talabalarga bir xil topshiriqlar berish o‘rniga ularning tayyorgarlik darajasi va kasbiy qiziqishiga mos topshiriqlarni taklif etish mumkin. Bunda topshiriqlarning murakkabligi, mustaqillik darajasi va bajarish shakli farqlanishi mumkin.

Beshinchi mexanizm mentorlik va teskari aloqadir. Mentor talabaning rivojlanish yo‘lini kuzatib boradi, uning faoliyatiga oid dalillarga asoslangan fikr-mulohaza beradi va keyingi qadamlarni belgilashga yordam beradi. Samarali professional rivojlanish jarayonida ekspert yordami, hamkorlik va teskari aloqaning ahamiyati Darling-Hammond va hammualliflarining tadqiqotlarida ham ko‘rsatilgan [2].

Oltinchi mexanizm refleksiv monitoringdir. Talaba “Men nimani o‘rgandim?”, “Qaysi kompetensiyam rivojlandi?”, “Qaysi muammoga duch keldim?”, “Keyingi bosqichda nimani o‘zgartirishim kerak?” kabi savollar asosida o‘z rivojlanishini tahlil qiladi. Bunday refleksiya talabaning kasbiy rivojlanish jarayonini tashqi boshqaruvdan ichki o‘zini boshqarishga tomon siljitadi.

Muhokama. “Talaba orbitasi” modeli bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirishga qaratilgan yondashuv sifatida professional kompetensiya, kasbiy mobillik va refleksiv rivojlanish tushunchalarini o‘zaro bog‘lash imkonini beradi.

M. Mulder tomonidan ishlab chiqilgan professional kompetensiya konsepsiyasida kompetentlik kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va munosabatlarning yaxlitligi sifatida qaraladi [5]. “Talaba orbitasi” modeli ushbu yondashuvni amaliy rivojlanish trayektoriyasi bilan to‘ldiradi. Ya’ni talaba nafaqat qanday kompetensiyalarga ega bo‘lishi kerakligini, balki ularni qaysi bosqichda va qanday faoliyat orqali rivojlantirishini ham anglaydi.

Kasbiy mobillik nuqtayi nazaridan modelning afzalligi shundaki, talabaning rivojlanish trayektoriyasi qat’iy belgilanmaydi. Ta’lim muhiti, texnologiyalar yoki kasbiy vazifalar o‘zgarganda individual rivojlanish yo‘nalishi ham moslashtirilishi mumkin. Bu esa zamonaviy pedagog uchun zarur bo‘lgan moslashuvchanlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Babenko talabalarning ijtimoiy va kasbiy mobilligini kasbiy tayyorgarlik jarayonida rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [6]. Biktuganovning tadqiqotlarida ham o‘qituvchining professional mobilligi zamonaviy kasbiy vazifalarni bajarish va yangi faoliyat sharoitlariga moslashish bilan bog‘lanadi [7].

Shu bilan birga, modelni amalga oshirishda bir qator tashkiliy shartlarga e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, o‘qituvchining har bir talaba uchun individual rivojlanish yo‘lini kuzatishi ma’lum vaqt va metodik resursni talab qiladi. Ikkinchidan, diagnostik vositalar ilmiy asoslangan va amaliyot uchun qulay bo‘lishi lozim. Uchinchidan, mentorlik tizimi faqat maslahat berish shaklida emas, muntazam teskari aloqa va rivojlanish monitoringi bilan bog‘langan holda tashkil etilishi kerak.

“Talaba orbitasi” modeli oliy ta’lim muassasasini faqat bilim beruvchi tashkilot sifatida emas, balki talabaning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik ekotizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Bunday ekotizimda

universitet, kafedra, professor-o‘qituvchi, mentor, amaliyot bazasi va talabaning o‘zi yagona rivojlanish tizimining subyektlariga aylanadi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirish zamonaviy pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning samaradorligi talabaning boshlang‘ich tayyorgarligi, kasbiy motivatsiyasi, individual ehtiyojlari, kompetensiyalari va rivojlanish dinamikasini hisobga olishga bog‘liq.

Tadqiqot asosida taklif etilgan “Talaba orbitasi” modeli bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini individual diagnostikadan boshlab, maqsadni belgilash, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash, amaliy faoliyat, mentorlik, raqamli va innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish, refleksiv monitoring hamda korreksiyagacha bo‘lgan yaxlit jarayon sifatida tashkil etishni nazarda tutadi.

Modelning asosiy xususiyati uning siklik va dinamik xarakterga egaligidadir. Talabaning rivojlanish natijalari keyingi bosqich uchun yangi diagnostik asos vazifasini bajaradi. Shu sababli kasbiy rivojlanish yakuniy nuqta bilan chegaralanmaydi, balki yangi maqsadlar va yangi kasbiy vazifalar asosida davom etadi.

“Talaba orbitasi” modelida kasbiy mobillik ham alohida kompetensiya emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining yangi pedagogik vaziyatlarga moslashishi, o‘z kompetensiyalarini rivojlantirishi, innovatsion vositalardan foydalanishi va o‘z kasbiy rivojlanishini mustaqil boshqarishi bilan bog‘liq integral sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Modelni amaliyotga joriy etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini standartlashtirilgan yondashuvdan individual, uzluksiz, refleksiv va boshqariladigan jarayonga o‘tkazish imkonini beradi. Shu bilan birga, modelning samaradorligini aniqlash uchun keyingi tadqiqotlarda diagnostik mezonlar va indikatorlarni ishlab chiqish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish hamda talabalarning kasbiy motivatsiyasi, kasbiy mobilligi, refleksivligi va raqamli kompetentligidagi dinamik o‘zgarishlarni empirik jihatdan aniqlash maqsadga muvofiq.

Amaliy tavsiyalar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini “Talaba orbitasi” asosida tashkil etishda dastlabki kurslardan boshlab individual kasbiy diagnostika tizimini joriy etish maqsadga muvofiq. Diagnostika natijalari asosida har bir talabaning individual kasbiy profili shakllantirilib, keyingi pedagogik faoliyat shu profil bilan bog‘lanishi lozim.

Ta’lim jarayonida individual rivojlanish xaritasidan foydalanish, amaliy topshiriqlarni talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish, mentorlik va muntazam teskari aloqani yo‘lga qo‘yish modelning amaliy samaradorligini oshirishi mumkin.

Pedagogik amaliyotni individual kasbiy rivojlanishning asosiy maydonlaridan biri sifatida tashkil etish, talabaning real pedagogik vaziyatlar bilan ishlashini ta'minlash va amaliyot natijalarini refleksiv tahlil qilishga sharoit yaratish zarur.

Shuningdek, talabaning kasbiy rivojlanishini baholashda faqat yakuniy natijalarga emas, balki rivojlanish dinamikasiga ham e'tibor qaratish lozim. Bunda portfolio, o'z-o'zini baholash, mentor xulosasi, pedagogik kuzatuv va amaliy topshiriqlar natijalari o'zaro uyg'unlashtirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Janbayeva M.S. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mobilligini shakllantirish metodikasi: PhD dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2026.

Darling-Hammond L., Hyler M.E., Gardner M. Effective Teacher Professional Development. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2017.

Borko H. Professional Development and Teacher Learning: Mapping the Terrain // Educational Researcher**.** – 2004. – Vol. 33, No. 8. – P. 3–15.

Fullan M. The New Pedagogy: Students and Teachers as Learning Partners // Learning Landscapes**.** – 2013. – Vol. 6, No. 2. – P. 23–29.

Mulder M. Conceptions of Professional Competence // Billett S., Harteis C., Gruber H. (Eds.). International Handbook of Research in Professional and Practice-Based Learning**.** – Springer, 2014. – P. 107–137.

Babenko T. Development of Social and Professional Mobility of Students in the Process of Professional Training // Pedagogy and Education Management Review. – 2021. – No. 4. – P. 45–50.

Biktuganov Y.I. Professional Mobility of a Teacher**.** – Ekaterinburg: Ural State Pedagogical University, 2016.

Belyakova N.V. Professional Mobility of Teaching Staff as an Indicator of Their Success in the Transition to New Generation Standards // Education and Training of Young Children. – 2014. – No. 2. – P. 68.

Lebedeva V.P. Professional Development of a Teacher as the Most Important Factor in the Implementation of the Humanistic Paradigm of Education // Standards and Monitoring in Education**.** – 2001. – No. 4. – P. 39–42.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694